




Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil
yanvar-mart oylarida





2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi


74,9 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi

64,6 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
22 476,1 mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
110,5%





2021- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **22 476,1 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **3 964,7 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)





2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	22 476,1	110,5
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 871,3	117,9
Moliyaviy xizmatlar	6 999,9	115,1
Transport xizmatlari	2 220,0	100,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 430,2	103,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	826,7	104,6
Savdo xizmatlari	5 215,4	105,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	876,7	105,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 248,5	126,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	510,9	98,7
Ijara xizmatlari	387,8	98,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	161,1	110,6
Shaxsiy xizmatlar	292,4	102,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	683,6	111,9
Boshqa xizmatlar	1 181,8	118,0



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ko'rsatkich

Eng past ko'rsatkich





2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni Moliyaviy xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **31,1 %** ni tashkil etdi.

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida Moliyaviy xizmatlari umumiy hajmda **31,7 %**ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **0,6 %**.

2021- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (**26,1 %**) boshqa xizmatlar (**18,0 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**17,9 %**), moliyaviy xizmatlarda (**15,1 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**11,9 %**), shuningdek, Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda (**10,6 %**) qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi - **33,5 %**. Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar biroz o'sish kuzatilgan – **2,3 %**.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **23,2 %** ni tashkil etdi, bu esa **5 215,4 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **4 267,4 mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmining **23,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y.
yanvar-mart

Xizmatlar hajmi
4 267,4 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
105,8 %

Ulushi
23,1 %



2021 y.
yanvar-mart

Xizmatlar hajmi
5 215,4 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
105,4 %

Ulushi
23,2 %




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **48,5 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-mart oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo ulushi **48,1 %** ga yetdi.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-mart oylarida)



2021- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **6 999,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **5 861,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmi-dagi ulushi **31,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **31,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **1 138,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **115,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati **133,5** % ga yetgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **95,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **5,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-mart oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **96,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,7 %** ga to'g'ri kelgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020- y.
yanvar-mart**

1 547,2
mlrd. so'm

118,9 %

8,4 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

324,0 mlrd. so'mga

**2021- y.
yanvar-mart**

1 871,3
mlrd. so'm

117,9 %

8,3 %






2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **61,0%** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y.
yanvar-mart



2021- y.
yanvar-mart



Telekommunikatsiya xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **66,3 %** ga yetgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

929,5 mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

1248,5 mlrd. so'm

2020- y. yanvar-mart



2021- y. yanvar-mart

2021- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 248,5** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **5,6 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,1 %** ni tashkil etdi.

103,6 %

O'sish sur'atlari, % da

126,1 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **929,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,6 %** qayd etilgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

647,3

826,7

**2020- y. yanvar-
mart**

2021- y.



**O'sish
sur'ati, % da**

96,3

102,4

2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **179,5** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-mart

77,2 %

22,8 %



22,1 %

77,9 %

2020- y. yanvar-mart



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **77,2 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **77,9 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar-mart

2020- y.

2021- y.

395,1
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

510,9
mlrd. so'm

121,9 %

O'sish sur'ati

98,7 %

2,1 %

Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

2,3 %






2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar -mart oylarida)



2021- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **15,0 %** (2020- yil yanvar-mart oylarida – **15,2 %**)ni Yunusobod tumani tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangihayot tumanida – **0,8 %** (2020- yil yanvar-mart oylarida – **0,8 %**) qayd etildi.



2021- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Toshkent shahrida	22 476,2	110,5	112,7
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	739,2	114,8	109,4
Mirzo Ulug'bek	2 297,0	111,4	112,5
Mirobod	2 788,9	112,2	114,3
Olmazor	1 840,4	108,4	122,5
Shaxontoxur	2 604,2	117,6	106,9
Sergeli	985,3	92,4	88,4
Chilonzor	2 816,7	109,7	126,1
Uchtepa	1 406,7	102,1	110,0
Yunusobod	3 368,4	108,9	115,8
Yakkasaroy	1 956,8	102,9	93,8
Yangihayot	172,2	110,6	-
Yashnobod	1 500,5	119,2	123,3



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi

xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1-aprel holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **74,9 %**, sanoat **16,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **1,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **8,1 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1-mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **73,5 %** ni, sanoat **17,5 %** ni, qurilish **8,0 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **1,0 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



44,0 %

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsa-tilgan bozor xizmatlarining ulushi **44,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **86,2 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 71-203-88-15